O’zbekistonda yadro fizikasi sohasi rivoji

Katta adron kollayderdagi fizik tadqiqotlarga bag‘ishlangan anjumanning ikkinchi kunida yadro fizikasi va elementar zarralar fizikasi sohasidagi yutuq va kamchiliklar muhokama qilindi.

12-15 sentyabr kunlari o‘tkaziladigan konferensiyaning maqsadi elementar zarralar fizikasi va yadroviy texnologiyalar sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va yutuqlar bilan tanishish, katta adron kollayderi kompakt myuon solinoidli detektorida olib borilayotgan eksperimentlarva olingan yangi fizik natijalar muhokamasi, turli mamlakatlar yetakchi olimlari va mutaxassislari bilan hamkorlikni kengaytirish,O‘zbekiston olimlarini yirik ilmiy loyihalarga keng jalb etish, turli mamlakatlar yetakchi olimlari bilan fanning dolzarb muammolarini muhokama qilish, o‘zaro manfaatli hamkorlik bo‘yicha ilmiy-texnik masalalarni aniqlash.

Ta’kidlash kerakki, Katta adron kollayderi, elementar zarralar bilan bog‘liq masalalarning xalqaro miqyosda, aynan O‘zbekistonda, mamlakatimiz olimlari ishtirokida muhokama qilinayotgani yurtimiz Fanlar akademiyasi, Yadro fizika instituti tadqiqotchilarining ulkan yutug‘i hisoblanadi, mamlakatimizda yadro fizikasi sohasini jadal rivojlanayotganidan darak beradi.